




Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi

**2021- yilning
yanvar-noyabr
oylarida
Qashqadaryo viloyat
xizmatlar sohasining
rivojlanishi**



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'ortalash va har xil turdag'i vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar
ulushi –
58,9 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
3 610,8
ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
12 139,9
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi –
69,9 %**

**Ko'rsatilgan
bozor
xizmatlarining
o'sish
sur'atlari -
119,5 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlarning
o'sish sur'atlari –
117,3 %**



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **12 139,9** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **2 761,0** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **119,5 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	12 139,9	119,5
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	544,9	120,3
Moliyaviy xizmatlar	1 958,3	128,7
Transport xizmatlari	2 650,1	122,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 531,4	119,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	332,8	106,8
Savdo xizmatlari	3 862,7	111,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	297,8	120,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	596,7	169,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	158,2	125,8
Ijara xizmatlari	316,9	120,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	407,1	118,1
Shaxsiy xizmatlar	388,3	116,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	131,4	106,8
Boshqa xizmatlar	494,7	109,9



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da Nisbatan past ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-noyabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **31,8 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport (**21,8 %**), moliyaviy xizmatlar (**16,1 %**), shuningdek, ta'lim soxasidagi xizmatlar (**4,9 %**) ni qayd etdi.



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Memorchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi 1,1 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari umumiylaj hajmning **33,3 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida Me'morchilik sohasidagi xizmatlar bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,2 %**.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmogda.

2021- yil yanvar-noyabr oylarida yuqori o'sish ta'llim sohasidagi xizmatlarda (**69,3 %**), moliyaviy xizmatlar (**28,7 %**), sog'liqni saqlash (**25,8 %**), transport xizmati (**22,0 %**), ijara xizmatlarida (**20,8 %**), Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**20,5 %**), hamda, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**20,3 %**) o'sish qayd etildi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlarda (**6,8 %**) qayd etildi.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



—♦— 2020- y. yanvar-noyabr —●— 2021- y. yanvar-noyabr

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida moliaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **128,7 %**. Memorchilik sohasidagi xizmatlarda keskin pasayish kuzatilgan – **69,7 %** .

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **31,8 %** ni tashkil etib, bu **3 862,7 mld. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **3 125,0 mld. so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **33,3%** ga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

**2021-y.
yanvar-
noyabr**

**3 862,7
mld. so'm**

**Xizmatlar
hajmi**

**3 125,0
mld. so'm**

111,0 %

**O'sish
sur'ati**

97,6 %

**2020-y.
yanvar-
noyabr**

**737,7
mld. so'mga**

**Hajmning
o'sishi**



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiyl savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i, **84,7 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **10,7 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **4,6 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi

(2021- yilning yanvar-noyabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo ulushi **84,3 %** ga yetgan.



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

2021- yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 958,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **1 493,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi hajmidagi ulushi **16,1 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar- noyabr oylarida ularning ulushi **15,9 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **465,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **128,7 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati **128,7 %** ni tashkil etgan.



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **84,6 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,1 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **10,3 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

**Sug'urta bo'yicha
xizmatlar**



**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**



**Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmning **89,2 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,9 %** ga to'g'ri kelgan.
Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **7,0 %** ni tashkil etgan.



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2020- y.
yanvar-noyabr

449,4
mlrd. so'm

110,1 %

4,8 %

2021- y.
yanvar-noyabr

544,9
mlrd. so'm

120,3 %

4,5 %



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi




2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi **95,3 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y.
yanvar-noyabr



2021- y.
yanvar-noyabr



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **97,1 %** ni tashkil etgan.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzlusiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

169,3 %

**2020- yilga
nisbatan o'sish
sur'atlari**

108,3 %

2020- y. yanvar-noyabr

**596,7
mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari
hajmi**

**338,4
mlrd. so'm**

2021- y. yanvar-noyabr

4,9 %

**Umumiy
hajmdagi ulushi**

3,6 %

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **596,7 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,9 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **169,3 %** ni tashkil etgan.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2021- y.
yanvar-noyabr**




158,2 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi

**2020- y.
yanvar-noyabr**




114,7 mlrd. so'm

1,3 %




**Xizmatlarning
jami hajmidagi ulushi**


1,2 %



125,8 %



O'sish sur'ati



94,4 %



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

271,2 mlrd.
so'm

2020- y.
yanvar-noyabr

332,8 mlrd.
so'm

2021- y.
yanvar-noyabr

Xizmatlar
hajmi

91,1 %

106,8 %

O'sish
sur'ati



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

2020-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **332,8** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



**2020- y.
yanvar-
noyabr**

**2021- y.
yanvar-
noyabr**



**Yashash bo'yicha
xizmatlar**



**Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar**

2021- yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyo'� hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **93,4** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **93,8** % ni tashkil etgan.



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Qashqadaryo viloyati *	12 139,9	119,5	102,5
Qarshi sh.	3 213,7	114,4	102,6
Shahrisabz sh.	738,2	130,6	100,8
tumanlar:			
G'uzor	588,7	121,8	102,2
Dehqonobod	411,8	123,1	110,0
Qamashi	564,8	118,5	103,6
Qarshi	644,0	125,7	101,0
Koson	823,3	116,4	105,4
Kitob	845,1	117,6	103,4
Mirshikor	459,2	116,9	100,5
Muborak	601,6	115,7	103,2
Nishon	441,5	116,1	105,6
Kasbi	521,0	119,5	104,7
Chiroqchi	734,8	118,4	104,2
Shahrisabz	849,3	124,4	101,9
Yakkabog'	702,9	138,5	101,3

*) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi




2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



2021- yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulushni Qarshi shahri tashkil etdi – **26,5 %** (2020-yilning yanvar-noyabr oylarida – **27,8 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Dehqonobod tumanida – **3,4 %** (2020-yilning yanvar-noyabr oylarida – **3,3 %**) ni qayd etgan.



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

**3 610,8
ming so'm**



Hajmning o'sishi

**767,9
ming so'mga**

117,3 %

O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 610,8** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish su'rati **117,3 %** ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 842,9** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,6 %** da qayd etilgan.

20

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

**21 141
birlik**



**3 822
birlikka
o'sgan**

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi



58,9 %



2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

122,1 %

Ularning umumiyl sonidagi ulushi



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi




2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **58,9 %**, sanoat **13,0 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **18,6 %** ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **9,4 %** ga to'g'ri keldi.

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **60,4 %** ni, sanoat **13,7 %** ni, qurilish **11,4 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **14,5 %** ni tashkil etgan.



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

**2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**47,1 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **8,2 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **4,6 %** ga yetdi.

Sog'lijni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **3,6 %** ga teng bo'ldi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,1** ni tashkil etdi.

Savdo – 47,1

**Boshqa turdag'i
xizmatlar – 34,5**

**Yashash va ovqatlanish
– 8,2**

Tashish va saqlash – 4,6

Axborot va aloqa – 2,1

Sog'lijni saqlash – 3,6

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi




2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



69,9 %

2021- yil yanvar-noyabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **69,9 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **77,0 %** ga to'g'ri keldi.

**Xizmatlar sohasi
statistikasi**
Tel.: 75-221-44-32

**1- dekabr
holatiga**

2020- y.

2021- y.

77,0 %

73,8 %

